Ingliz romantik she'riyatida, xususan, U.Wordsworth ijodida tabiat insonning ichki "men"i bilan dialogda bo'lgan mustaqil mavjudot sifatida talqin etiladi [4;121–123-b.]. Bu yerda tabiat lingvokultural kod sifatida axloqiy va falsafiy mushohada maydoniga aylanadi. Demak, har bir adabiy an'anada tabiat obrazi umumiy bo'lsa-da, uning semantik yuklamasi etnospecifik xususiyatlarga ega. Shu jihatdan, lingvokultural kodlar nafaqat estetik, balki kognitiv ahamiyatga ham ega. Ular muayyan madaniyat vakillarining dunyoni qanday ko'rishi, baholashi va tasniflashini belgilaydi. Ushbu kodlarni bilmasdan turib, badiiy matnni to'liq anglash mumkin emas. Mazkur tadqiqot doirasida alohida ta'kidlash lozimki, til kompetensiyasi madaniy kodlarni to'liq tushunish uchun yetarli emas. Interkultural muloqot jarayonida aynan madaniy kompetensiyaning yetishmasligi kommunikativ uzilishlarga olib keladi. Bu holat badiiy matnlarni o'qish va talqin qilish jarayonida, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ladi. G. Longfellowning "The Song of Hiawatha" asari bu fikrni tasdiqlovchi yorqin misoldir. Asarda landshaft, mavsum va tabiat obrazlari Shimoliy Amerikaning o'ziga xos tabiiy-madaniy muhitiga bog'langan. Ushbu kodlar mo'tadil iqlim zonasida yashovchi o'quvchilar uchun nisbatan tushunarli bo'lsa-da, tropik yoki polar hudud vakillari uchun begona bo'lishi mumkin. Natijada matn semantik jihatdan to'liq ochilmaydi.

Xulosa. Tadqiqot davomida madaniy kodlar va lingvokultural kodlarning ikkilamchi modellashtiruvchi tizimlar sifatidagi mohiyati asoslab berildi. Ushbu kodlar sensor idrok orqali qabul qilinadigan voqelikni ramziy va konseptual darajaga ko'tarib, etnospetsifik tafakkur shakllarini yuzaga keltiradi. Pavlovning signal tizimlari haqidagi qarashlari va Losevning ontologik talqini asosida tasvirning belgiga aylanishi madaniy ma'no hosil qilishning fundamental mexanizmi ekanligi ko'rsatildi. Badiiy va she'riy matnlar tahlili shuni tasdiqladiki, lingvokultural kodlar adabiyotda eng faol va zich shaklda namoyon bo'ladi. Tabiat, makon va vaqt obrazlari turli lingvokultural an'analarda umumiy ko'rinishga ega bo'lsa-da, ularning semantik yuklamasi etnospecifik xususiyatlarga ega. Bu esa badiiy matnni talqin qilish jarayonida nafaqat til kompetensiyasi, balki madaniy kompetensiyaning ham zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Baratynsky E.A. Poetry and prose. Moscow, "Nauka", 1999, 540 p.

[2]. Bunin I.A. Collected works. Vol. 6, Moscow, Khudozhestvennaya Literatura, 1987, 512 p.

[3]. Dolinin K.A. Text interpretation. Saint Petersburg, "Nauka", 2003, 304 p.

[4]. Hansen-Löve O. Russian symbolism: A systems approach. Vienna: Austrian Academy of Sciences Press, 2003, 420 p.

[5]. Longfellow H.W. The Song of Hiawatha. New York, Penguin Classics, 2004, 224 p.

[6]. Losev A.F. Dialectics of myth. Moscow, "Mysl", 1990, 528 p.

[7]. Lotman Y.M. Universe of the mind. London, I.B.Tauris, 1990, 288 p.

[8]. Lotman Y.M. The semiosphere. Saint Petersburg, Iskusstvo-SPB, 2001, 704 p.

[9]. Marx K., Engels F. Collected works. Vol. 3, Moscow, Progress Publishers, 1975, 610 p.

Siddiqova Shoxida Isoqovna (Jizzax davlat Pedagogika universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); siddikovajizzac1975@gmail.com)

O'ZINIKI BO'LMAGAN KO'CHIRMA GAPLAR BADIIY MATNDA FIKR IFODALOVCHI SINTAKTIK BIRLIKLAR SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar badiiy matnda fikr ifodalovchi sintaktik birliklar sifatida tahlilga tortilgan. Xususan, badiiy matn boshqa matnlardan farqli ravishda, nafaqat tinglovchiga oddiy axborot yetkazish vazifasini, balki uning ruhiyatiga ta'sir etish vazifasini ham o'z zimmasiga oladi. Bu xususiyati esa badiiy matndagi turli poetik vositalar, sintaktik figuralar orqali namoyon bo'ladi. Badiiy matnning estetik vazifasini yuzaga chiqaradigan, uning ta'sirchanligini oshiradigan badiiy tasvir vositalaridan biri esa o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar, badiiy matn, sintaktik birliklar, sintaktik figuralar, badiiy tasvir vositalari.*

НЕСОБСТВЕННЫЕ ПРЯМЫЕ РЕЧИ, КАК СИНТАКСИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ, ВЫРАЖАЮЩИЕ МЫСЛЬ В ЛИТЕРАТУРНОМ ТЕКСТЕ

Аннотация. *В данной статье анализируются неоригинальные цитаты как синтаксические единицы, выражающие идеи в литературном тексте. В частности, литературный текст, в отличие от других текстов, берет на себя не только задачу передачи простой информации слушателю, но и задачу воздействия на его психику. Эта особенность проявляется в различных поэтических приемах и синтаксических фигурах литературного текста. Одним из средств художественного изображения, раскрывающих эстетическую функцию литературного текста и усиливающих его воздействие, являются неоригинальные цитаты.*

Ключевые слова: *неоригинальные цитаты, литературный текст, синтаксические единицы, синтаксические фигуры, средства художественного изображения.*

NON-OWN QUOTATIONS AS SYNTACTIC UNITS EXPRESSING THOUGHT IN A LITERARY TEXT

Annotatsion. *In this article, non-original quotations are analyzed as syntactic units expressing ideas in a literary text. In particular, a literary text, unlike other texts, assumes not only the task of conveying simple information to the listener, but also the task of influencing his psyche. This feature is manifested through various poetic devices and syntactic figures in a literary text. One of the means of artistic depiction that reveals the aesthetic function of a literary text and increases its impact is non-original quotations.*

Keywords: *non-original quotations, literary text, syntactic units, syntactic figures, means of artistic depiction.*

Kirish. Bugungi kunda o‘zbek tilining turli sathlarini tadqiq qilish bo‘yicha bir qator yutuqlarga erishilgan,turli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, hali amalga oshirilishi lozim vazifalar, o‘z tadqiqotchilarini kutib yotgan muammolar ko‘p. Ana shulardan biri o‘zbek tilidagi o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarni o‘rganish masalasi bo‘lib, tilshunoslikda bu masala bo‘yicha ayrim ishlar amalga oshirilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tilshunos N.Mahmudov matnning kompozitsion tuzilishida e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar haqida fikr yuritganda quyidagilarni alohida ta’kidlaydi: “Yaxlit matnning mantiqiyligini ta’minlashda matnning kompozitsion tuzilishini to‘g‘ri tashkil etish ham hal qiluvchi ahamiyatga molikdir. Bayon qilinayotgan fikr, mazmun tarkibida, tabiiyki, muayyan ketma-ketlik, aloqadorlik, bog‘liqlik, umuman, sistema mavjud. Mazmundagi ana shu sistema nutqiy ifodada ham ro‘yi rost o‘z aksini topmog‘i lozim. Mantig‘i sog‘lom matn “biri tog‘dan, biri bog‘dan” fikrlar “bo‘tqa”sidan iborat bo‘lmaydi. Shuning uchun matnda fikr rivojining o‘zanini buzmaydigan aniq kompozitsiya bo‘lishi zarur” [1;51-b.]. Kompozitsion nutq qurilishiining me’yoriy tavsiflari, ular adabiy an’analarda qanday shakllanganligi, kompozion nutq qurilishining har bir komponenti namoyon bo‘lishi haqida gapirish mumkin. A.Shomaqsudov ta’kidlaganidek, “adabiy asarlarda individual xususiyatlar asarning badiiylik qiymatini belgilovchi asosiy o‘lchovlardan biridir, shu sababli yozuvchining adabiy asarda voqelikni badiiy idrok etishi, obraz yaratishi, asar kompozitsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan individual xususiyatlarning hammasi asar tilida yorqin namoyon bo‘ladi” [2;33-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy tilshunoslikda nutq ifodalashning ko‘chirma gap, o‘zga gap va o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap kabi turlari qayd qilinadi. Tilshunoslik bo‘yicha yaratilgan tadqiqotlarda, asosan, ko‘chirma gap va o‘zlashtirma gaplar to‘g‘risida birmuncha to‘laroq fikrlar bayon qilingan.

O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar atamasi tilshunoslikda badiiy asar qahramonining fikri, taassuroti hamda ichki kechinmalari u eslayotgan, tilga olayotgan shaxs nutqi to‘liq yoki qisman bo‘lsa-da, asar qahramonining o‘z ifodasi bilan beriladigan gaplar sifatida talqin qilinadi.

O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar rus tilshunosligida ham o‘rganilgan. G.G.Infantova o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarda muallif so‘zlashini aytib o‘tsa, tilshunos N.S.Pospelov muallif qahramonlar tilidan gapirishini va shu yo‘l bilan hikoya qilishning subyektiv-modallik xususiyati kasb etilishini, V.I. Koduxov esa muallif qahramon nuqtayi nazaridan so‘zlashini yoki boshqacha qilib aytganda, badiiy asar qahramoni muallif tili bilan so‘zlashini qayd qiladi. Barchamizga ma’lumki, poetik sintaksisning asosiy vazifasi sintaktik birliklarning badiiy matndagi vazifasini, ushbu birliklar ostida yashiringan mohiyatni ochib berishdan iborat.

Tahlil va natijalar. Badiiy matn boshqa matnlardan farqli ravishda, nafaqat tinglovchiga oddiy axborot yetkazish vazifasini, balki uning ruhiyatiga ta’sir etish vazifasini ham o‘z zimmasiga oladi. Bu xususiyati esa badiiy matndagi turli poetik vositalar, sintaktik figuralar orqali namoyon bo‘ladi. Badiiy matnning estetik vazifasini yuzaga chiqaradigan, uning ta’sirchanligini oshiradigan badiiy tasvir vositalaridan biri o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar hisoblanadi.

Tilshunos M.X.Hakimov ilmiy matn tadqiqiga bag‘ishlangan dissertatsion ishida bu haqda shunday yozadi: “Matn so‘zining lug‘aviy ma’nosida birikish, bog‘lanish tushunchalarining borligi, shuning uchun matn tarkibi o‘zaro qaysidir bog‘lovchilar yordamida birikishini o‘rganish «Matn tilshunosligi» sohasining asosiy muammolaridan biri bo‘lib qoldi. Matn birliklarining o‘zaro bog‘lanishini ifoda etuvchi takror va uning bir necha ko‘rinishi, olmosh turkumiga oid ba’zi so‘zlar, gapning so‘roq shakliga xos bo‘lgan ko‘rinishining matn hosil qilishdagi vazifalari matn tilshunosligida alohida o‘rin tutadi [3;7-b.].

“Matn – sintaksisning tekshiruv obyekti. Sintaktik hodisa sifatida matn maxsus leksik-grammatik va umumiy mazmun talabi bilan birikkan birdan ortiq mustaqil gap turlarining yig‘indisidan iborat. Matn o‘ziga xos murakkab sintaktik strukturaga ega bo‘lgan nutqning eng yirik ifodasidir” [4;4-b.].

Badiiy matnda fikr ifodalashda faol qo‘llaniladigan sintaktik birliklar qatori o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar ham obraz, xarakter va tasvir yaratish vazifasini bajaradi hamda lisoniy shaxs doirasida

umumlashadi. O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap badiiy matnda nutqning ichki yoki tashqi ko‘rinishida ifodalanishidan qat’iy nazar, personaj holati, his-tuyg‘ulari, o‘y-fikrlarini muallif istagiga mos holda badiiy-estetik tasvirlash imkonini beradi.

Yusuf xayol bilan yana o‘z eshigi oldiga kelib yetganini sezmay qoldi. “Tovba, dedi u o‘ziga-o‘zi, xudoyimning o‘zi qo‘llamasa, men hech narsani o‘zgartirolmayman, chog‘i...” Yusuf noiloj ichkari kirdi, o‘zini divanga tashlab, ko‘zlarini yumdi. Xayolida bolaligi jonlandi... Yusuf cho‘chib hushiga keldi. “Hammasi xayol, shirin xayol, o‘ylandi u divanda yotgancha, nahotki, endi o‘sha chog‘lar qaytib kelmaydi, nahotki hayotim bundan buyon mana shunday samarasiz va zerikarli kechaveradi? Axir, qirchillama qirq yosh ostonasida nega bunchalar abgorman, bunchalar xo‘rlanganman? Kim meni shu ko‘yga soldi, kim? Nahotki, hech kim? Nahotki, mening o‘zim sekin-asta shu holga tushgan bo‘lsam? Axir hammasi joyida edi-ku! Qaerda xato qildim?” Yusufning savollari adoqsiz edi, lekin topgan javoblariga qanoat hosil qilmas, ichini tobora kemirib borayotgan so‘roqlar unini bir dam bo‘lsa-da, o‘chirsam derdi... Beixtiyor do‘stlarini – talabalik chog‘laridagi hamfikru hamqismatlarini sog‘indi: “Qaydasiz, ey yoronlar? Nega yo‘llarimiz ayro tushdi? Nega biz bir-birimizni bu ahvolda tashlab ketdik? Axir qandoq ahil edik, qandoq do‘st edik! Yana qaytarmikin o‘sha damlar, o‘sha bahorlar?..” (Ulug‘bek Hamdam. “Muvozanat” romani).

Yuqorida keltirilgan matndagi voqealar tizimi asar personajlaridan biri bo‘lgan Yusufning boshqalar bilan o‘zaro munosabati asosida ochib berilar ekan, o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar tasvirlanayotgan personaj to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yanada to‘ldiradi va badiiy asar tilining ta’sirchanligiini kuchaytiradi.

“Badiiy nutq stilida keng qo‘llaniladigan o‘zga gap formalari, jumladan, o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar ham ana shunday obrazlilik uchun, xarakter va manzaralar yaratish uchun bevosita bo‘ysundirilgan bo‘ladi. O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar badiiy nutq stilida qahramonlarning o‘y-xayoli sezgisi, umidi, hadiksirashi va ko‘rgan tushlarini eslashi kabilarni jonli tarzda, tabiiy, o‘z holicha tasvirlash imkonini beradi. O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar orqali asar qahramonlarining “ichki” nutqi ham, “tashqi” nutqi ham bayon strukturasiga mos holda o‘z ifodasini topmoqda” [5;63,27-b.].

Muallif asarda o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar orqali turli insoniy munosabatlarni yoritib beradi, voqealar rivojida muhim o‘rin tutgan kishilar xatti-harakatini ijobiylik yoki salbiylik nuqtayi nazaridan baholaydi. So‘zlovchining turli xil ruhiy holati, afsus-nadomati, sog‘inchi kabilar tilda mavjud bo‘lgan lisoniy vositalar yordamida voqelanadi. So‘zlovchi fikrlarining qanday mazmunda ekanligiga qarab ma’lum ko‘rinishda bo‘lishi badiiy matnda o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar vositasida amalga oshiriladi. Ayniqsa, fikrlarning ichki nutq ko‘rinishida yuzaga chiqishi, ritorik so‘roq gaplarning ko‘pligi matndan anglashilgan pragmatik mazmunni yanada kuchaytirgan.

Xulosa va takliflar. Yozuvchining badiiy matnda o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar zimmasiga uslubiy vazifalar yuklashi ularning o‘quvchi shaxs tomonidan tez va to‘g‘ri tushunilishini ta’minlashdan tashqari obrazlilikni ham vujudga keltiradi. Badiiy asarlarda qo‘llanilgan o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarni qo‘llashda shu gaplar tarkibida ishtirok etayotgan va personaj ruhiyatini, uning ichki kechinmalari tasviriga asoslangan leksik-frazeologik vositalarning tadqiq etilayotgan matnning lingvostilistik va badiiy-estetik qimmatini belgilashda, lisoniy shaxsga xos belgilarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishiga alohida e’tibor qaratiladi. Ular badiiy asar tilining o‘ziga xosligini ta’minlashdan tashqari personaj nutqini tavsiflashda ham asosiy omillardan biri hisoblanadi. Badiiy matnda asar mazmunini ochishga, personajlar xarakter-xususiyatlarini obrazli tarzda ifodalashda o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar muhim ahamiyatga ega. Har bir ijodkor bu gaplardan o‘rinli foydalana olishi bilan o‘z ijodi mahsuli bo‘lgan asar tilining ifodali va ta’sirchanligini ta’minlashga erishadi. Badiiy matnlarda qo‘llanilgan o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar so‘zlovchi kommunikativ maqsadining amalga oshishini ta’minlashdan tashqari, tasvirlangan nutqiy vaziyat, unda ishtirok etuvchilarning ruhiy holatini o‘quvchi ko‘z o‘ngida aniq gavdalantiradi, kitobxonda ularga nisbatan ma’lum bir subyektiv munosabat uyg‘onishiga asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Маҳмудов Н. Нутқ маданияти ва тилнинг эстетик вазифаси. “Филология масалалари”, 2006, 2-son (11), 51-bet.

(2). Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1983, 33-bet.

(3). Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари. Филол.фан.номз ... дис., Тошкент, 1993, 7-бет.

(4). Мамажонов А., Абдупаттоев М. Матн синтаксиси. Фарғона, 2002, 4-бет.

(5). Йўлдошев Б., Исроилов С. Ўзиники бўлмаган кўчирма гапнинг грамматик-стилистик хусусиятлари ва бадиий текстдаги ўрни. Ўқув қўлланма, Самарқанд, СамДУ нашри, 1991, 27-бет; 63-бет.